

BIZNES LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH MASALALARI.

Mamatova Xosiyat Bazarbayevna

АННОТАЦИЯ: *Ushbu maqolada investitsiya muhitining mohiyati, uni investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilash bo'yicha amaliy taklif va tafsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsiya, investitsion muhit, investitsiya jozibadorligi.*

Abstract: *This article describes the essence of the investment environment, its importance in attracting investments, and the factors affecting it. Practical proposals and explanations for improving the investment environment in the country have been developed.*

Key words: *investment, investment environment, investment attractiveness.*

Bugungi kunda yirik real sektor korxonalaridagi samarali investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklari katta rol o'ynamoqda. Agar investitsion loyihalar yuqori samara beradigan bo'lsa hamda kredit qaytarish layoqati bo'layotgan bo'lsa bank ularni moliyalashtirishda manfaatdor bo'ladi.

“Keng assortimentli yuqori sifatli shisha mahsulotlari ishlab chiqarish” investitsion loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi tahlilini ko'rib chiqamiz.

“World Glass” mas'uliyati cheklangan jamiyati (O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 11 sentabrdagi “Tijorat siri to'g'risida” gi qonunining 14-moddasiga ko'ra nomi o'zgartirilgan) tomonidan erkin iqtisodiy zonaning 30 gektar maydonda yillik quvvati birinchi etapda 4 million kvadrat metr va ikkinchi fazaning birinchi etapida 5 million kvadrat Float-shisha hamda 2 etapda esa 10 million kvadrat metr shisha yillik ishlab chiqaruvchi “ Keng assortimentli yuqori sifatli shisha mahsulotlari ishlab chiqarish” investitsion loyihasi Xitoyning «Zhonyuan Glass (Tianjin) Industry Co Ltd» kompaniyasi bilan amalga oshiriladi. Investitsiya loyihasining birinchi etapi ya'ni 4 million kvadrat metr yllik quvvati 2016 yilda amalga oshirilgan. Bozordagi talab va taklifning o'zgarishi hisobiga ikkinchi faza 2 etapda ya'ni qurilish va 2022-2019 yillarda yillik quvvati 5 million kvadrat metr Float-oynalari ishlab chiqarish liniyasini o'rnatish rejalashtirildi. Ikkinchi fazadagi loyihaning qiymati 25,47 million AQSh dollari bo'lib, tashabbuskor o'z mablag'i hisobidan 17,47 million dollar va qolgan 8 million AQSh dollarini kredit hisobidan moliyalashtirishni rejalashtirgan.

2.3-jadval Loyihani moliyalashtirish manbasi

Moliyalashtirish manbasi	AQSh dollari	Tarkibi (%)
O'z kapitali	17 466 695,00	68,6
Bank krediti	8 000 000,00	31,4
Jami moliyalashtirish miqdori	25 466 695,00	100,00

Ushbu investitsion loyihaning asosiy maqsadlari:

- uy-joy va qurilish sanoatining hajmlarining o'sishi hisobiga shisha mahsulotlar talabini ta'minlash;

- ishlab chiqarishning mahalliy ishlab chiqarishidan foydalanish;

- investitsion mablag'larini tez muddatda qoplanishi;

- aholi bandligi ta'minlash uchun sharoit yaratish;

- budjetga qo'shim tushumlarni tushushini ta'minlash;

- yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqarishga qo'llash;

Bu kabi maqsadlar investitsion loyihalarning real sektordagi va iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsatadi va loyiha moliyaviy ta'minotida muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Loyixaning umumiy qiymati va xarajati quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2.4-jadval

Korxonaga xarajati tasnifi

	Tashabbuskor ulushi	Bank krediti
	68,59%	31,41%
Bino-inshoot, infrastruktura	2 200 000,00	0,00
Mashina va asbob-uskunalar	12 722 535,00	8 000 000,00
Transport vositalari	55 000,00	0,00
Boshqa yordamchi materiallar	300 000,00	0,00
JAMI:	15 277 535,00	8 000 000,00
Ishchi kapitali	2 167 160,00	0,00
Sug'urta (garov ta'minoti qiymatidan)	12 000,00	
Kreditni rasmiylashtirish bo'yicha boshqa xarajatlar	10 000,00	
Jami kiritilgan ulush	17 466 695,00	8 000 000,00
Loyihaning dastlabki qiymati jami	25 466 695,00	

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, olinayotgan kredit investitsion loyihani amalga oshirish uchun zarur asbob-uskunalar uchun quyidagilar shartlar bilan ajratilmoqda:

Kredit summasi- 8 000 000,00 million AQSh dollari

Kredit muddati- 5 yil

Kredit foizi- 9 %

Imtiyozli- 12 oy

Kredit qaytarish sharti- kredit muddati davomida har oy.

U holda korxonaning kredit qaytarish grafigi quyidagicha bo'ladi.

2.5-jadval Kredit qaytarish grafigi

Muddati	Hisoblangan foiz	Asosiy qarz	Jami to'lov	Qoldiq kredit summasi
0 yil				8 000 000,00

1 yil	720 000,00	0,00	720 000,00	8 000 000,00
2 yil	637 499,84	2 000 004,00	2 637 503,84	5 999 996,00
3 yil	457 499,48	2 000 004,00	2 457 503,48	3 999 992,00
4 yil	277 499,12	2 000 004,00	2 277 503,12	1 999 988,00
5 yil	97 498,76	1 999 988,00	2 097 486,76	0,00

Bu jadval ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, korxonaga o'zini faoliyatini boshlash uchun 12 oy davomida imtiyozli davr bergan, bu esa korxonaga 2 320 000 AQSh dollar to'lash o'rniga, 720 000 AQSh dollari to'lash imkoni berdi. To'g'ri buning hisobiga keyingi yillarda asosiy qarzni qaytarish summasi nisbatan ya'ni 400 000 ming AQSh dollari ortiqcha to'lashi mumkin. Biroq bu korxonaning o'zini faoliyatini boshlab, olingan daromadlardan kreditni qaytarish imkoni beradi. Real sektor korxonasi bo'lganligi sababli, investitsion loyihani amalga oshirish va ishga tushirish davrini 18 oy muddat vaqt olmoqda. Korxonaning faoliyat amalga oshirgandan keyin qilayotgan foydalarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2.6-jadval

Korxonaga foydasi

2-fazadagi float-oyina (yillik quvvati 5 million kvadrat metr)	Davr	Yillik sof foyda	Jami sof foyda
qurilish davri (15 oy)	2022.1-2019.5	0	0
birinchi ishlab chiqarish yili	2019.6-2020.6	4 262 661	4 262 661
ikkinchi ishlab chiqarish yili	2020.6-2021.6	5 264 215	9 526 876
uchinchi ishlab chiqarish yili	2021.6-2022.6	8 267 186	17 794 062
to'rtinchi ishlab chiqarish yili	2022.6-2023.6	6 156 153	23 950 215
beshingi ishlab chiqarish yili	2023.6-2024.6	5 765 525	29 715 740

Bu jadval ma'lumotlaridan tahlil qilishimiz mumkinki, agar korxonaga uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini davom ettiradigan bo'ladigan bo'lsa, barcha xarajatlarsiz, shuningdek kredit tulovlaridan tashqari 5 yil davomida 29,71 million AQSh dollar sof foyda qiladi. Bu korxonaga uchun asosiy ustunligi bozorda raqobatchilari kamligi bo'lsa, asosiy risk xomashyoning Xitoyda o'z vaqtida yetkazib berilmasligi hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda korxonaga mahsulotlari asosan import qilinishiga hisobga olsak, dunyoda ishlab chiqarish, qurilish sohasi, mashinasozlik to'xtab qolmasa korxonaga yuqorida ko'rsatilgan soy foydaga erishishi mumkin.

Tijorat banklar tomonidan investitsiya loyihalarini baholashda diskontlashga asoslangan usullar ichida eng ko'p qo'llanilgan usul-bu sof joriy qiymat (NPV) usulidir. Sof joriy qiymat noldan katta (ijobiy) bo'lsa, bunda loyiha samarali hisoblanadi. Sof

joriy qiymat noldan kichik yoki undan kichik bo'lsa, loyihani moliyalashtirish samarasiz bo'ladi. Shuningdek investitsion loyihalarni samaradorligini baholashda, foydaning ichki me'yori (IRR) loyihadan kutilayotgan daromadlilikni ko'rsatadi va qilinishi mumkin bo'lgan maksimal xarajatlar chegarasini belgilab beradi, ya'ni IRR olinayotgan kredit bo'yicha bank foiz stavkasini yuqori chegarasini ko'rsatadi, ayni shu foiz chegarasidan yuqori miqdoriga ega bo'lganda loyiha daromad keltiradi.

Ushbu loyiha bo'yicha NPV va IRR tahlilini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra loyiha NPV to'rtinchi yil qoplanadi, ishlab chiqarishning bu yilida ijobiy natija bo'lib, 1 043 541 AQSh dollarini tashkil etadi hamda bu ko'rsatkichda IRR 24,71 foizni tashkil etadi.

2.7-jadval

Loyiha NPV va IRR tahlili

Muddat	Pul oqimi	Diskont stavkasi	NPV	IRR
0 yil	-25466695	5%		
1 yil	7073331	5%	-18747030	16.73%
2 yil	5400852	5%	-13616221	20.67%
3 yil	8641724	5%	-5406583	32.46%
4 yil	6789605	5%	1043541	24.17%
5 yil	6226402	5%	6958623	22.63%

To'rtinchi yilga kelib, foyda ichki me'yori loyihaning eng yuqori foiz stavkasi erishadi va bu loyihaning iqtisodiy samarador hisoblanishini va kreditni o'z vaqtida qaytarishini bildiradi.

Bu kabi loyihalarni baholash oldindan investitsion loyihasining samarali yoki samarasizligini, kelajakda kreditlarni o'z vaqtda kaytara olishini bildiradi. Bu baholashlar faqat biznes-reja bo'yicha ish tashkil qilganda va uning ko'rsatkichlarini o'z vaqtida amalga oshirganda ishlashi mumkin. Shuning uchun tijorat banklar investitsion loyihalarni kreditlashda ularning amalga oshiradigan loyihalarini chuqur tahlil qilishlari talab etiladi. Bu jarayonda nafaqat TIA ma'lumotlari balki tashqi ta'sirlarni ham hisobga olgan holda loyining istiqbolligini hamda kreditni qaytarishga layoqatliligini baholashlari, shuningdek kreditning qaytarilishini baholashning har xil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

15. Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. 1107 p.
16. Hillier D., Grinblatt M., Titman Sh. Financial Markets and Corporate Strategy. London: McGraw-Hill Higher Education, 2012. 877 p.
17. Korso E. Inclusive growth analysis and HRV: A methodological note. 2011. Elektron manba: <http://siteresources.worldbank.org>
18. Landesmann, Michael Alroy (2000): Structural Change in the Transition

Economies, 1989 to 1999. The Vienna Institute for International Economic Studies.

19. Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporate Finance, and the Theory of Investment // American Economic Review, v. 48. (1958).

20. Modigliani F., Miller M. (1963) "Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction" American Economic Review, Vol. 53, No. 3, pp. 147 – 175.

21. Peter Brusov, Tatiana Filatova, Natali Orehova, Nastia Brusova. Weighted average cost of capital in the theory of Modigliani-Miller, modified for a finite lifetime company // Applied Financial Economics, v. 21, № 4.